



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 3/2 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 9, НОМЕР 3/2

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 9, ISSUE 3/2



ТОШКЕНТ-2026

**Бош мухаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош мухаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Рахмановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ермегов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Андижон давлат университети

**Рашидов Ойбек Расулович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори (DSc),  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайдон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Курбанов Бахтияр Журабаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Наманган давлат университети

**Ҳакимова Шоира Сағдуллаевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Баҳадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Юсупов Аҳмеджон Шоназарович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Urganch davlat universiteti

**Тиллажаева Хуршида Джумаваевна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Тошкент давлат техника университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Исоқов Бахтиёр Робидинович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Наманган давлат университети

**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети


**Турсунова Юлдуз Бобоқуловна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
ЎзР. ФА. Тарих институти

**Азаматова Гулмира Байирбековна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Каримжонов Жасурбек Мухторжонович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD),  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Камола Саипова</b> ПОЛИТИЧЕСКИЕ ПОТряСЕНИЯ 1917 ГОДА И ИЗМЕНЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА НАСЕЛЕНИЯ ТУРКЕСТАНА.....	5
<b>2. Аваз Ерметов</b> ЎЗБЕКИСТОН ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИНИНГ СОВЕТ БОШҚАРУВ ТИЗИМИДА ТУТГАН ЎРНИ ВА ФАОЛИЯТИДАГИ ХУСУСИЯТЛАР (XX АСРНИНГ 20-30 ЙИЛЛАРИ МИСОЛИДА).....	15
<b>3. Raximjon Xasanov</b> YOSHLAR MA'NAVİYATI VA MILLIY TARBIYA.....	22
<b>4. Alibek Bengmatov</b> XX ASRNING IKKINCHI YARMIDA JANUBIY O'ZBEKISTONDA SPORT KADRLARINI TAYYORLASH: SIYOSIY, IJTIMOIY VA INSTITUTSIONAL OMILLAR TAHLILI.....	27
<b>5. Ahmad Ergashev</b> YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI: FUTBOL INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYALASHDA HUQUQIY ISLOHOTLARNING O'RNI.....	36
<b>6. Baxtiyor Nazirov</b> SURXON VOHASIDA XALQ MILLIY O'YINLARI GENEZISI VA TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI.....	45
<b>7. Axmedjon Yusupov, Mohira Abdullayeva</b> O'RTA OSIYO KO'CHMANCHI XALQLARI HARBIY BOSHQARUVIDA QUROL YAROG'LARNING O'RNI (ILK SAK-MASSAGETLAR MISOLIDA).....	54
<b>8. Абдухолик Мингнарoв</b> XX АСР БОШЛАРИДАТУРКИСТОНДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ВА ЖАДИДЛАР ФАОЛИЯТИНИНГ МИЛЛИЙ МАТБУОТДА ЁРИТИЛИШИ.....	60
<b>9. Людмила Соколова</b> ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВОДСТВА ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ВЫШИВКИ В ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЕ УЗБЕКИСТАНА НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ.....	67
<b>10. Baxtiyor Xalmuratov</b> O'ZBEK XALQINING ORNITOLOGIK QARASHLARI: TARIXIY VA ZAMONAVIY TAHLIL.....	72
<b>11. Jamshid Peremkulov</b> XIX-ASR IKKINCHI YARMIDA TOSHKENT SHAHRI MAHALLALARI TARIXI.....	78
<b>12 Anvarjon Erqo'ziyev</b> XIV – XIX ASRLARDA O'RTA OSIYONING XALQARO SAVDODAGI ISHTIROKI.....	86




UO‘K: 9:433:908

**Baxtiyor Safarovich Nazirov,**  
Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.  
Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti  
b.nazirov@dtpi.uz,  
ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-8580-4299>

### **SURXON VOHASIDA XALQ MILLIY O‘YINLARI GENEZISI VA TARIXIY-ETNOLOGIK TAVSIFI**

**For citation:** Bakhtiyor S. Nazirov. THE GENESIS AND HISTORICAL-ETHNOLOGICAL DESCRIPTION OF NATIONAL FOLK GAMES IN THE SURKHAN VALLEY. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 3.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19845503>

#### **ANNOTATSIYA**

Maqola Surxondaryo vohasida xalq o‘yinlarining paydo bo‘lishi (genezisi), tarixiy ildizlari va etnologik xususiyatlariga bag‘ishlangan. Tadqiqotda o‘zbek milliy o‘yinlarining ibtidoiy jamoa davridan boshlab mehnat jarayonlari, chorvachilik turmush tarzi, totemistik qarashlar va bayram-marosimlar bilan bog‘liq holda shakllangani ko‘rsatilgan. Surxon vohasida saqlanib qolgan “Chillak” (Zuvullatar va Tug‘di), “Oqsuyak”, “Qurma tayoq”, “Taqya tushirar”, “To‘rt qumaloq”, “Besh tosh” kabi o‘yinlarning qadimiy kelib chiqishi va chorvachilik xo‘jaligiga uzviy aloqadorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. “Avesto”dan tortib Mahmud Qoshg‘ariy, Alisher Navoiy, Amir Temur davri manbalari va XIX–XX asr etnografik yozuvlarigacha bo‘lgan keng tarixiy manbalar tahlil qilinib, o‘yinlarning asrlar osha deyarli o‘zgarmasdan saqlanib kelgani isbotlangan. Maqolada xalq o‘yinlarini fanlararo kompleks tadqiq etish zarurati ta‘kidlanadi hamda ularni milliy va umumbashariy madaniy meros sifatida asrash, targ‘ib qilish va yosh avlod tarbiyasida qo‘llash muhimligi urg‘ulanadi.

**Kalit so‘zlar:** Etnosport, chorvachilik turmush tarzi, chillak, oqsuyak, taqya tushirar, qurma tayoq, besh tosh, to‘rt qumaloq.

**Назирова Бахтиёр Сафарович,**  
PhD, доцент

Деновский институт предпринимательства и педагогики

### **ГЕНЕЗИС И ИСТОРИКО-ЭТНОЛОГИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА НАРОДНЫХ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР В СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ДОЛИНЕ**

#### **АННОТАЦИЯ**

Статья посвящена возникновению (генезису), историческим корням и этнологическим особенностям народных игр в Сурхандарьинском оазисе. В исследовании показано, как

узбекские национальные игры формировались, начиная с эпохи первобытно-общинного строя, в тесной связи с трудовыми процессами, скотоводческим укладом жизни, тотемистическими представлениями и празднично-обрядовыми мероприятиями. Научно обосновывается древнее происхождение и органическая связь с пастбищным хозяйством таких игр, сохранившихся в Сурханском оазисе, как «Чиллак» (Зувуллатар и Тугди), «Оксуяк», «Курма таёк» (Курма таяк), «Таця туширар» (Таця туширар), «Тўрт кумолок» (Тўрт кумолок) и «Беш тош» (Беш таш). Проанализирован широкий спектр исторических источников, от «Авесты» и трудов таких учёных, как Махмуд Кашгари и Алишер Навои, до источников эпохи Амира Темура и этнографических записей XIX–XX веков, что доказывает сохранение этих игр практически в неизменном виде на протяжении столетий. В статье подчёркивается необходимость комплексного междисциплинарного изучения народных игр и указывается на их важность для сохранения, пропаганды в качестве национального и общечеловеческого культурного наследия, а также применения в воспитании подрастающего поколения.

**Ключевые слова:** Этноспорт, скотоводческий уклад жизни, чиллак, оксуяк, таця туширар, курма таёк, беш тош, турт кумолок.

**Bakhtiyor S. Nazirov,**

Doctor of Philosophy (PhD) in Historical Sciences,

Associate Professor

Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

## THE GENESIS AND HISTORICAL-ETHNOLOGICAL DESCRIPTION OF NATIONAL FOLK GAMES IN THE SURKHAN VALLEY

### ABSTRACT

The article is dedicated to the emergence (genesis), historical roots, and ethnological features of folk games in the Surkhandarya Oasis. The research demonstrates how Uzbek national games were formed in relation to labor processes, pastoral lifestyle, totemistic beliefs, and holiday rituals, dating back to the primitive communal era. The ancient origins and intrinsic connection to the pastoral economy of games preserved in the Surkhandarya Oasis, such as "Chillak" (Zuvullatar and Tug'di), "Oqsuyak," "Qurma tayoq," "Taqa tushirar," "To'rt qumaloq," and "Besh tosh," are scientifically substantiated. A broad range of historical sources, from the "Avesto" and the works of scholars like Mahmud Kashgari and Alisher Navoi to sources from the era of Amir Temur and ethnographic records of the 19th–20th centuries, are analyzed, proving that these games have been preserved almost unchanged over centuries. The article emphasizes the necessity of interdisciplinary complex research into folk games and highlights their importance for preservation, promotion as a national and universal cultural heritage, and application in the upbringing of the younger generation.

**Index Terms:** Ethnosport, pastoral lifestyle, chillak, oqsuyak, taqa tushirar, qurma tayoq, besh tosh, to'rt qumaloq.

### 1. Dolzarbligi:

Insoniyat madaniy merosining ajralmas va mushtarak qismi bo'lgan xalq o'yinlarining tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Ushbu tushuncha keng qamrovli bo'lib, insonning oilaviy marosimlari va ritual hayoti bilan chambarchas bog'liq. Farzand dunyoga kelishi bilan u atrof-muhitni o'yinlar va o'yinchoqlar orqali anglay boshlaydi. O'yin inson hayotining deyarli barcha bosqichlarida ifoda etiladigan ixtiyoriy faoliyat bo'lib, tarbiyaviy, axloqiy, ijtimoiy va estetik kabi muhim vazifalarni bajaradi [1].

Xalq o'yinlari ajdodlarimizning ijtimoiy-ma'naviy va estetik ehtiyojlari asosida yuzaga kelgan. Ular faqatgina bo'sh vaqtni ko'ngilli o'tkazish vositasi emas, balki yosh avlodni jismoniy va ma'naviy jihatdan barkamol qilib tarbiyalashning samarali usuli sifatida shakllangan qadimiy

an'anadir. O'yinlar xalq ommasining ijodiy salohiyati natijasida yuzaga kelib, asrdan asrga an'ana tarzida o'tib kelgan, badiiy so'z, harakat va ohang uzviyligidan tarkib topgan [2].

O'yinlarning tarixiy genezisi ibtidoiy davrlarga borib taqaladi. Qadimgi odamlar turli jonivorlarning xatti-harakatlariga taqlid qilib, turli o'yinlarni o'ylab topganlar. Tarixiy manbalarga ko'ra, qadimgi ovchilik o'yinlari totemistik va animistik qarashlar bilan aloqador bo'lgan. Dastlab ibtidoiy marosimlarning tarkibiy qismi sifatida paydo bo'lgan totemistik raqs va o'yin harakatlari, keyinchalik mustaqil xalq o'yinlari va tomosha san'ati asariga aylangan. Shu bois, o'zbek xalq o'yinlarini tadqiq etish qadimiy ajdodlarimizning dunyoqarashini o'rganish uchun keng imkoniyatlar ochadi [3].

## 2. Metodlar va o'rganilganlik darajasi:

Surxon vohasi xalq o'yinlarining genezisi va ularning etnologik xususiyatlarini o'rganishda tarixiy manbalar va etnografik tadqiqotlar muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Xususan, O'rta Osiyo xalqlari, jumladan, o'zbeklarning an'anaviy turmush tarzi va etnomadaniy qiyofasini tadqiq etgan I.Jabborov [1] hamda K. Shoniyozov [6;10] kabi olimlarning ishlari voha aholisining xo'jalik yuritish tizimi va o'yinlar o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. K. Shoniyozovning o'zbek-qarluq va qipchoq komponentlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari Surxon vohasidagi etnik guruhlar o'rtasida tarqalgan o'yinlarning kelib chiqish ildizlarini aniqlashda ilmiy qimmatga ega. Shuningdek, E.M.Peshchereva[9] va K.K.Kubakov[11]larning ishlarida bolalar o'yinlari va xalq o'yin-kulgulari moddiy madaniyat elementlari (o'yinchoqlar) hamda hududiy xususiyatlar (Samarqand, Jizzax va qo'shni hududlar) kontekstida tahlil etilgan.

Vohadagi jismoniy tarbiya va sportning tarixiy ildizlari J.Toshpo'latov[4]ning tadqiqotlarida bevosita Surxondaryo hududi misolida ko'rib chiqilgan bo'lsa, U.Qoraboev[5] va F.Qurbonova[2;8]larning ishlarida xalq o'yinlarining ommaviy bayramlar va tomoshalardagi funksional vazifalari yoritilgan. Ayniqsa, bayram va sayillar tarkibidagi o'yinlarning sotsiomadaniy ahamiyati, ularning jamoaviylik ruhini shakllantirishdagi o'rni metodologik jihatdan asoslab berilgan. S.Yo'ldoshev[3]ning Farg'ona vodiysi bo'yicha qilgan xulosalari Surxon vohasi xalq o'yinlari bilan qiyosiy tahlil o'tkazishga imkon yaratsa, G.N.Simakov[12]ning tadqiqotlari xalq o'yin-kulgularining ijtimoiy funksiyalarini nazariy jihatdan boyitadi.

Temuriylar davri va undan oldingi tarixiy bosqichlarda xalq o'yinlarining tutgan o'rni O.Bo'riev va J.Berdiyev[14]larning etnotarixiy lavhalarida, shuningdek, "Amir Temur o'gitlari"[15] kabi risolalarda o'z aksini topgan. Bu manbalar xalq o'yinlarining nafaqat ko'ngilochar, balki harbiy-jismoniy tayyorgarlik va komil inson tarbiyasidagi o'rnini ko'rsatadi. M.Qodirov[16] va M.Isakova[17]lar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar esa milliy qadriyatlar va qadimgi tomoshagohlarning shakllanish tarixini xalq o'yinlari genezisi bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilish imkonini beradi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, "Avesto"dan boshlab Mahmud Qoshg'ariy, Alisher Navoiy, Amir Temur davri manbalari va XIX–XX asr boshidagi etnografik yozuvlarga bo'lgan keng tarixiy davrda xalq o'yinlariga oid bebaho ma'lumotlar mavjud. Biroq, ushbu boy manbalar hali to'liq tizimli ravishda o'rganilmagan, ayniqsa arxeologik topilmalar va XVI–XIX asrlarga oid yozma yodgorliklar yetarlicha ilmiy muomalaga kiritilmagan.

Ushbu tadqiqotda Surxon vohasi xalq o'yinlarining genezisi va tarixiy-etnologik xususiyatlarini yoritishda fanlararo kompleks yondashuv hamda tizimli tahlil metodlaridan foydalanildi. Xususan, tarixiy-qiyosiy tahlil metodi orqali "Avesto"dan tortib, Mahmud Qoshg'ariy va Alisher Navoiy asarlarigacha bo'lgan yozma manbalar zamonaviy etnografik ma'lumotlar bilan qiyoslanib, o'yinlarning asrlar davomida saqlanib qolgan "tarixiy yadrosi" aniqlandi. Shuningdek, Denov, Boysun va Sherobod tumanlarida o'tkazilgan etnografik dala tadqiqotlari davomida keksa avlod vakillari bilan suhbatlar uyushtirilib, "Chillak", "Oqsuyak" va "Qurma tayoq" kabi o'yinlarning mahalliy variantlari hamda ijro etish qoidalari bevosita "jonli an'ana" sifatida yozib olindi va ilmiy tahlilga tortildi.

Shu bilan birga, tadqiqotda genezis tahlili va retrospektiv rekonstruksiya metodlari qo'llanilib, o'yinlarning ibtidoiy mehnat jarayonlari, totemistik qarashlar va chorvachilik xo'jaligi bilan bog'liq ildizlari tizimlashtirildi. Tizimli-funksional va etnosport yondashuvi orqali xalq

o'yinlari shunchaki harakatlar majmuasi emas, balki yosh avlodni jismoniy, intellektual va ma'naviy jihatdan shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-pedagogik institut sifatida baholandi. Bu yondashuv hududiy o'yinlarning sotsiomadaniy ahamiyatini ochib berish bilan birga, ularning milliy o'zlikni anglash hamda zamonaviy sport turlariga transformatsiyalashuv darajasini ob'ektiv yoritish imkonini berdi.

### 1. Tadqiqot natijalari:

Arxeologik va etnografik tadqiqotlar Janubiy O'zbekiston hududida, xususan, Baqtriyada qadim-qadim zamonlardayoq xalq o'yinlarining muayyan tizimi mavjud bo'lganidan dalolat beradi. Hisobsiz jang-u jadallarda ishtirok etgan Baqtriya jangchilari uchun zo'r jismoniy tayyorgarlik, kuch, tezlik, chaqqonlik va chidamlilik hayotiy zarur edi. Bunday sifatlar uzoq muddatli mashg'ulotlardan so'ng shakllangan.

Bu qadimiy davrda ot sporti, kamondan otish, yugurish, sakrash, irg'itish, suvda suzish, ovchilik, shatranj va kurash kabi ko'plab o'yin turlari yuksak darajada taraqqiy etgan. Surxondaryo viloyati hududida Nika ma'budasining paydo bo'lishi (g'alaba ma'budasi) esa, bu yerda qadimgi yunon Olimpiya o'yinlariga o'xshash sport musobaqalari o'tkazilganligidan guvohlik beradi [4].

O'zbek xalq o'yinlarini o'rgangan faylasuf olim U.Qoraboev o'yinlarning insoniyat shakllanishi va rivojlanishidagi muhim o'rnini ijtimoiy turmush tarzi va mehnat tajribalari bilan bog'lab, o'yin-musobaqalarga bo'lgan ehtiyojni quyidagicha izohlaydi:

Ilk ibtidoiy davrda meva zaxirasini tez va ko'p yig'ish omon qolish sharti bo'lib, bu o'ziga xos musobaqani keltirib chiqargan.

Keksaygan mohir terimchilar uchun meva terish xatarli bo'lganida, ular bolalarga meva-cheva terishni ish sifatida emas, balki o'yin shaklida o'rgatishgan.

Serhosil joylar uchun urug'-qabilalar o'rtasidagi o'lim bilan tugaydigan janglar o'rniga, masalani tinch yo'l bilan hal qilish maqsadida, sardorlarning madaniylashgan kurashi-olishuvlari vujudga kelgan. Bu hozirgi milliy kurashlarning ibtidosi bo'lgan.

Qabilalar muammolarni janjalsiz hal qilish uchun mehmon chaqirganda, inson tili rivojlanmagan davrda mehmon va mezbonlar o'z fikrlarini pantomim o'yin-raqs shaklida ifodalashgan [5].

Insoniyat tarixining dastlabki davrlaridan boshlab, o'yinlar hayotda muhim o'rin tutgan. Ular yordamida insoniyat o'sgan, ulg'aygan, jismonan baquvvat bo'lgan, aqlan, ruhan rivojlangan va ma'naviy kamol topgan.

O'yinning insoniyat taraqqiyotida katta ahamiyat kasb etishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

Insonda o'yinga nisbatan tabiiy ehtiyoj mavjud bo'lib, u hayotdagi bo'shliqni to'ldirgan, tanadagi ortiqcha kuchni sarflashga va yetishmagan kuchni to'plashga yordam bergan.

O'yinlar xalq tarixining in'ikosidir. Ular insonning turmushi, mehnati, tajribasi, kurashi va yutuqlarini aks ettiradi, bu orqali insoniyat tarixi, orzu-umidlari va muammolarini o'rganish mumkin.

Xalq o'yinlari insoniyat madaniyatining eng qadimiy shakli hisoblanadi. Ular ko'pgina ma'naviy sohalar (raqs, musiqa, teatr, sport, marosim kabi) uchun asosiy manba sifatida xizmat qilgan.

O'yinlar va musobaqalar insonlarning sog'lomlashtirish vositasi bo'lib, ota-bobolarimiz ular yordamida aqliy mukammal, ruhan tetik va jismoniy baquvvat avlodni shakllantirishgan.

O'yinlar eng samarali tarbiya vositasidir. Bolalar ular orqali hayotdagi qiyinchiliklarni yengishga o'rgangan, ish va kurashda muvaffaqiyat qozonishga intilgan.

O'yinlar ajdodlarning tajribalarini o'zida mujassamlashtirgan bebaho madaniy meros hamda yosh avlodni aqlan, ruhan va jismonan barkamol insonlar sifatida shakllantirish uchun xizmat qiluvchi manbadir.

Xalq o'yinlarining muayyan bir qismi qadimgi odamning o'z turmush tarzini badiiy talqin etish ehtiyoji tufayli bevosita mehnat qilish jarayonida shakllangan. Ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik va qadimgi hunarmandchilik kabi ajdodlarning kundalik turmush tarzi o'yinlarning kelib chiqishiga asos bo'lgan dastlabki va asosiy ijtimoiy manbalar sirasiga kiradi.

Ishlab chiqaruvchi kuchlar rivojlanishi va mehnat qurollarining takomillashuvi bilan, bolalarning bu qurollardan kattalardek foydalana olmasligi ularga xos va mos bo'lgan o'yin turlarining shakllanishiga sabab bo'lgan. Bu jarayon natijasida bolalar mehnat qurollariga o'xshagan o'yinchoqlar yasay boshlaganlar va bu, ehtimol, bolalar o'yinining asosiy vositasi — o'yinchoqlarning vujudga kelishiga olib kelgan.

Ovchilik xo'jaligining rivojlanishi asosida chorvachilik shakllangan. Chorvani boqish, parvarishlash va undan mahsulot olishga oid muhim mehnat jarayonlari — masalan, sigir tug'ishi bilan bog'liq "gelagayoshi" qilish, sigir sog'ishdagi "xo'sh-xo'sh" yoki qishga go'sht mahsulotlarini tayyorlash — kabi jarayonlarni aks ettiruvchi o'yinlar paydo bo'lgan. Aslida, bolalar kattalarning ish jarayonini o'yin shaklida takrorlab turishgan.

Chorvachilikda foydalaniladigan hayvonlar (ot, ho'kiz, eshak, tuya, bug'u) mehnatiga taqlid qiluvchi o'yinlar ham vujudga kelgan:

Hayvonlarga taqlid: Bahorda yer haydash uchun ho'kizni boqish – "Xo'sh-xo'sh", shoxlarini moylash – "Shoxmoylar", qo'sh haydash marosimlari – "Qo'sh haydash" va ilk bor ot egallash – "Qaysar ot" kabi o'yinlar shular jumlasidandir.

Mavsumiy marosimlar: Qo'y junlarini qirqish mavsumiy marosimi ("qirqim"), qoramol terilariga ishlov berish (iyilash), jun yigirish va kiyim to'qish kabi an'analar turli qo'shiq-raqslar va o'yinlar yordamida amalga oshirilgan.

Demak, qoramolchilik, qo'ychilik, yilqichilik, tuyachilik kabi chorvachilik tarmoqlarining har biri bilan bog'liq o'ziga xos o'yin-odatlar shakllangan.

O'zbekistonning tog', tog'oldi va dasht hududlarida, ayniqsa, Surxondaryo vohasida, xo'jalikning asosini chorvachilik tashkil etgan. Bu hududda yarim o'troq va o'troq dehqonlar ham chorva mollaridan yer haydash, bug'doy yanchish, suv tortish va savdogarlikda foydalanishgan [6].

Bunday turmush tarzi natijasida:

Chorvachilikka oid o'yinlar: "Podachi", "Echkilar va cho'ponlar", "Oq tuya", "Bo'ri keldi", "Oqsoq bo'ri va qo'ylar" kabi o'zbek xalq o'yinlari yuzaga kelgan.

Dasht o'yinlari: Bugungi kunda Surxondaroda saqlanib qolgan "Oq terakmi-ko'k terak", "Chillak" (Zuvullatar, Tug'di), "Oq suyak", "Qurma tayoq", "To'rt qumaloq", "Besh tosh" kabi o'yinlar ham mohiyatan keng dashtliklarda tabiat qo'ynida o'ynaladigan o'yinlar tizimi mavjud bo'lganini tasdiqlaydi [7].

O'zbek xalq o'yinlari orasida qadimiy tarixga ega bo'lgan Chillak o'yini alohida ajralib turadi. Uni ikki nafar kishi yoki teng sonli ikki guruh shaklida o'ynash mumkin. Chillakning asosiy ikki ko'rinishi mavjud: "Zuvullatar" va "Tug'di". Har ikki turda o'yin bir xil tartibda boshlanadi: ishtirokchilar sop (taxminan bir metr uzunlikdagi, silliq va mustahkam daraxt shoxi) yordamida chillakni (ko'rsatkich barmoq yo'g'onligida, uchi yo'nilgan cho'p) yerga tushirmasdan urib turishadi. Qaysi jamoa ko'proq marta chiylay olsa, o'yinni boshlash huquqiga ega bo'ladi.

"Zuvullatar" o'yini. "Zuvullatar" uchun yerga katta doira chizilib, marra sifatida belgilangan nuqtaga chillak qo'yiladi. Doira markaziga sop sig'adigan kichik ariqcha qaziladi. Jamoa a'zolari navbat bilan chillakni ariqchadan sop yordamida ko'chirib, imkon qadar uzoqqa otadilar. Raqib jamoa vakillari esa chillak tushgan joydan turib uni marraga otib qaytarishadi. Chillak to'g'ri marraga tushsa, navbat keyingi o'yinchiga beriladi. Aks holda, chillakni otgan bola uch martagacha sop bilan yerdan ko'tarib, yana uzoqlashtirib uradi. Uchinchi zarbadan so'ng chillakning tushgan joyidan marragacha bo'lgan masofa odimlab o'lchanib, har bir odim bir ochko sifatida qayd etiladi. Bu jarayon chillakni raqib jamoa marraga tushira olguncha davom etadi.

Belgilangan ochkoni to'plagan jamoa ikkinchi, eng hayajonli bosqichga o'tadi. Bu bosqichda g'olib o'yinchi chillakni yana chiylaydi va nechta chiylash bajarsa, shuncha zarba bilan chillakni uzoqlashtiradi. Chillakning so'nggi tushgan joyidan mag'lub jamoa vakili uni olib, "Yakkam, dukkam, charxi falak, qovun po'choq... zuv-v-v-v" deb nafas olmasdan marraga qarab yugurishi kerak. Nafas olgan taqdirda jarayon qaytariladi. Yuguruvchi shartni bajargach, o'yin yakunlanadi.

"Taqya tushirar" (yoki "Taqya ketdi", "Do'ppi tushar"). Mazkur o'yin o'rta asrlardan buyon ma'lum bo'lib, qadimgi O'rta Osiyo xalqlari orasida shakllangan yakka kurash turlaridan biridir.

Rivoyatlarga ko‘ra, u bahor bayramlari va to‘y marosimlarida polvonlar kurashidan ilhomlangan yoshlar tomonidan chaqqonlikni sinash maqsadida paydo bo‘lgan.

Musobaqada ikki nafar o‘spirin boshiga taqya kiyib, maysazorda doira shaklida o‘tirgan tomoshabinlar oldida maydonga tushadi. Hakam hushtagidan so‘ng ishtirokchilar bir-birining boshidagi taqyani ilib tushirishga intiladilar. Kurashchilar dastlab aylanib, raqibning holatini sinaydilar; qulay pallada esa chaqqonlik bilan taqyani ilib olishga urinadilar. Birinchi bo‘lib taqyani tushirgan ishtirokchi g‘olib deb topiladi. Qoidalarga muvofiq, qo‘pollik va maqsadli turtki berish taqiqlanadi. O‘yin yoshlar orasida epchillik, chaqqonlik va tezkor qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Tug‘di” o‘yini. “Chillak”ning yana bir turi bo‘lgan “Tug‘di” ikki kishi o‘rtasida o‘ynaladi. O‘yinchining navbati “Zuvullatar”dagi kabi chiylash orqali aniqlanadi. Tekis maydonda chillak sig‘adigan aylana chuqurcha qaziladi, undan 10–11 qadam masofada marra belgilanadi.

Chiylashda yutqazgan ishtirokchi marradan chillakni chuqurchaga otadi. Chillak chuqurchaga tushsa, o‘yinchilar o‘rin almashadi. Agar tushmasa, birinchi o‘yinchi chillakni tushgan joyidan sop bilan yerdan chertib ko‘taradi va uzoqlashtirib uradi. Shundan so‘ng chillakning tushgan joyi odim bilan o‘lchanadi; agar o‘lchov marra va chuqurcha oraliq‘iga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, o‘yinchi yonidagilardan birining ismini aytib: “Men falonchini bir tug‘dim” deb jar soladi. Shu tariqa u bir nechta ishtirokchini “tug‘ishi” mumkin.

“Oqsuyak” o‘yini. Chorvachilik turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liq “Oqsuyak” xalq o‘yini tungi paytlarda, ikki teng guruh o‘rtasida o‘tkaziladi. Sardorlar tanlangach, qolgan ishtirokchilar yoshi va kuchiga qarab otlashadilar (“yer-osmon”, “it-mushuk”). O‘yinda qo‘y yoki echkinging tozalangan poycha suyagi — oq suyak ishlatiladi.

“Qurma tayoq” o‘yini. “Qurma tayoq” (yoki “qurilgan tayoq”) o‘yinida ishtirokchilar soni cheklanmagan bo‘lib, har bir bola cho‘pon tayog‘iga ega bo‘lishi lozim. U odatda yaylovda mol boqishga chiqqan bolalar orasida ommalashgan.

O‘yin boshida oqsoqol barcha tayoqlarni ikki qo‘li bilan ushlab tepaga otadi. Eng pastga tushgan tayoq egasi belgilangan joyga tayoqni qadaydi. Shundan boshlab barcha ishtirokchilar navbat bilan shu tayoqqa qarata o‘z tayoqlarini otadilar. Maqsad — qurilgan tayoqni urib yiqitish. Bunga erishgan o‘yinchi tayoqni olib qaytadi. Boshqalarniki esa tushgan joyida qoladi. Hamma tayoqlar otib bo‘lingach, bola tayoqlarini olish uchun qayta yuguradi. Yiqitilmagan tayoq egasi eng oxirda qolgan ishtirokchidan marraga tayoq qadaydi. Har safar tayoqni aniq urgani uchun o‘yinchi tayoq uzunligicha oldinga siljiydi. Marraga birinchi yetgan o‘yinchi g‘olib bo‘ladi. O‘yin bolalarda merganlik, tezlik va epchillikni rivojlantiradi.

“To‘rt qumaloq” o‘yini. “To‘rt qumaloq” o‘yini, asosan, qiz bolalar orasida mashhur bo‘lgan. O‘yin tuyaning to‘rt dona qumalog‘i bilan o‘ynaladi. Ishtirokchi to‘rt qumaloqni yerga sochadi va barmog‘i bilan chertib ulardan birini boshqasiga tekkizishi kerak. Bir donasiga tegsa — 10 ochko, ikki donasiga tegsa — 100 ochko, uch donasiga tegsa — 1000 ochko yoziladi. Qumaloqlar bir-biriga yaqin tushgan bo‘lsa, orasidan jimjiloq barmoq o‘tishi shart. Barmoq sig‘masa yoki qumaloq qimirlagan bo‘lsa, urinish hisobga olinmaydi.

“Besh tosh” o‘yini. “Besh tosh” uchun sopol idish (ko‘za yoki ko‘zacha) bo‘laklaridan besh dona tosh tayyorlanadi. O‘yin ikki kishi yoki ikki jamoa o‘rtasida o‘tkaziladi. O‘yinni boshlash uchun kaftdagi besh tosh yuqoriga otib, imkon qadar ko‘pini kaftning sirtiga tushirish lozim. Kim ko‘proq toshni kaft sirtiga qo‘ndira olsa, boshlash huquqiga ega bo‘ladi.

O‘yin davomida kaftdagi barcha tosh yuqoriga otib yerga tushirmasdan ilib olinadi. Agar bir necha tosh yerga tushsa, o‘yinchi ulardan birini havoga otib, ikkinchisini ko‘tarib olishi va havodagisini yana tushirmasdan ilishi kerak. Yerdan bitta tosh qolsa, raqib uni barmog‘i bilan bosib turadi, o‘yinchi esa havodagi toshni ham tushirmay, bosilgan toshni tortib olishi zarur.

Belgilangan ochkoni qo‘lga kiritganidan so‘ng o‘yin yanada qiziydi. Mag‘lub o‘yinchi kaftini yerga qo‘yadi. G‘olib toshlarni ketma-ket “so‘qi”, “sopi”, “siypalagich”, “tirnalog‘ich”, “qush ko‘rsatari” deb nomlab, mag‘lubning kafti ustiga joylashtiradi. Ba‘zi bosqichlarda kaft tinaladi, siypalanadi, eng qiyini esa — “qush ko‘rsatari”: bunda mag‘lub qushni ko‘rsatmaguncha g‘olib toshni uning barmoqlari orasida siqib turadi.

“Besh tosh” o‘yini xalqimizning eng qadimiy va sevimli intellektual-harakatli o‘yinlaridan biri bo‘lib, u epcillik, hushyorlik, muvozanat va tezkorlikni rivojlantiradi.

Dehqonchilikning rivojlanishi ikki yirik an‘ananing shakllanishiga asos bo‘ldi: birinchisi, bahorda yangi mehnat mavsumini boshlash, ikkinchisi, kuzda hosilni yig‘ishga bag‘ishlangan marosimlar. Yozgi og‘ir mehnatdan so‘ng mo‘l hosil olganidan xursand bo‘lgan dehqonlar xirmon to‘ylarini uyushtirishgan va bu bayramlarda mehnat jarayonlarini aks ettiruvchi o‘yinlar xursandchilik kayfiyatida ijro etilgan.

Dastlabki davrlardan boshlab insonlar hayotida terimchilik, ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik kabi xo‘jalik yuritish tajribalari o‘yin-raqslar bilan birgalikda shakllanib bordi. Ongi mehnat va amaliy tajribalar negizida turli o‘yinlar vujudga keldi. Har bir tarixiy davr o‘ziga xos o‘yinlarni yaratgan bo‘lib, bu o‘yinlar o‘sha davr kishilarini tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan. Xalq o‘yinlari odamlarda yashash uchun muhim bo‘lgan itoatkorlik, buyruqni bajarish, jangovarlik kabi sifatlarni shakllantirishga, ularning ma‘naviy, aqliy va jismoniy jihatdan barkamol insonlar sifatida rivojlanishiga xizmat qilgan. O‘yinlarning shakli va mazmuni, asosan, tabiiy sharoit, mehnat faoliyati, ijtimoiy munosabatlar, axloqiy me‘yorlar va siyosiy vaziyat ta‘sirida kelib chiqqan. O‘yinlardagi qarama-qarshiliklar aks etgan harakatlar ijtimoiy hayotdagi nizoli vaziyatlarning o‘ziga xos ifodasi bo‘lgan.

Ajdodlarimizning bosqinchilarga qarshi mardonavor jang qilib, Vatanni himoya qilgani tarixdan ma‘lum. Ular jang, olishish va kurash ko‘nikmalarini mashg‘ulot-o‘yinlari orqali o‘rganganlar. Bu fikrga tarixiy manbalar dalil bo‘la oladi. Masalan, tarixning otasi hisoblangan Gerodot miloddan avvalgi V asrda Markaziy Osiyodagi saklarni o‘qi zoe ketmaydigan mohir merganlar sifatida dunyoga mashhur bo‘lganini yozgan [8]. Shuningdek, u massagetlar malikasi To‘marisning jasorati va dovyurakligini tasvirlagan. Taxmin qilish mumkinki, To‘maris o‘zi va askarlarida bunday buyuk sifatlarni shakllantirish uchun harbiy-mashg‘ulot, musobaqa va o‘yinlardan ustalik bilan foydalangan.

Zardushtiylarning muqaddas kitobi “Avesto”da ham xalq odatlari, marosim bayramlari qatorida o‘yinlarga doir qimmatli ma‘lumotlar mavjud. Zardushtiylikdan kelib chiqqan o‘t bilan bog‘liq ko‘plab marosimlar hozirgacha “O‘t o‘yin”, “O‘tdan sakrash”, “Olovdan aylantirish” kabi o‘yin shakllarida saqlanib qolgan.

Abu Nasr Forobiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Zayniddin Vosifiy, Kaykovus kabi buyuk allomalarning asarlarida ham bolalar va folklor o‘yinlariga oid ko‘plab ma‘lumotlar uchraydi [10]. Turkiy xalqlardagi bolalar o‘yinlarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, asrlar o‘tsa-da, ba‘zi o‘yinlar deyarli o‘zgarmasdan saqlanib qolgan [11].

Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘ot it-turk” asari tarixiy o‘yinlarni o‘rganishda muhim manba hisoblanadi. Lug‘atda xalq o‘yinlarining 150 dan ortiq turlari tilga olinib, ularning 20 tasiga ta‘rif berilgan. Jumladan, unda “Qorag‘uni” (qorong‘uda qo‘rg‘oq olish), “Bandol” (asir olish), “Chavgon” (to‘p o‘yini), “Oq so‘ngak”, qilichbozlik, nayzadorlik kabi ko‘plab o‘yinlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shuningdek, “Poyga” kabi ot o‘yinlariga ham to‘xtalib, zo‘r otlarni yetishtirish usullarini bayon etgan. Qoshg‘ariy o‘yin va musobaqalarga nisbatan “bahs” atamasini ishlatgan (masalan, merganlik bahsi) va “oyun” (o‘yin), “oynagu” (o‘yinchoq) kabi ko‘plab atamalarni keltirgan. U “Munguz-munguz” nomli bolalar o‘yinini batafsil tavsiflaydi: bolalar tiz cho‘kib, sonlari orasiga qum solib to‘ldiradilar. Ona boshisi “Munguz-munguz” deganda, qolganlar “Nimaning munguzi?” deb so‘raydi. U shoxli hayvonlar nomini sanab ketadi, shoxsiz hayvon nomini aytib chalg‘itganida, uning ketidan takrorlagan bola suvga itarib yuboriladi. Buyuk alloma o‘z asarida qadimiy turkiy xalqlardagi harakatli, aqliy va vositali o‘yin-musobaqalar haqida bebaho ma‘lumotlar qoldirgan.

Tarixiy adabiyotlarga ko‘ra, qadimgi va o‘rta asrlarda shaharning ikki qismi vakillari o‘rtasida “Qilich jangi”, “Tuya poyga”, “Otliqlar poygasi” kabi musobaqalar o‘tkazilgan va shahar ahli bunga yil davomida tayyorgarlik ko‘rgan. Masalan, XIX-XXI asr boshlarida Qarshi shahrida mahallalar birlashib “el” tashkil etgan va shahardagi boshqa “el” bilan musobaqalashgan. O‘rta asrlar Sharq miniatyuralarida tasvirlangan “Chavgon o‘yini”, “Qaboq o‘yini” kabilar o‘yinlar

tarixiga katta qiziqish uygʻotadi. Afsoniy va tarixiy shaxslarning kamol topishida ham xalq oʻyinlari muhim rol oʻynagan. Jumladan, Alpomishning alp qomatli pahlavon boʻlishida merganlik, olishish, nayza otish, qilichbozlik, chavandozlik kabi musobaqa-oʻyinlari asosiy omil boʻlgan. “Alpomish” dostonida kurash, ot poyga, uloq kabi oʻyinlar negizida jasurlik, jangovarlik, matonat kabi fazilatlarni tarbiyalash boʻyicha xalq tajribasi oʻz aksini topgan.

Sohibqiron Amir Temurning har tomonlama yetuk shaxs boʻlib shakllanishida ham oʻyinlar muhim rol oʻynagan. Yoshligida Temurbek olishish-kurash, ot oʻyinlari, koʻpkari, merganlik, qilichbozlik, nayzabozlik, tosh koʻtarish kabi musobaqalarda qatnashgan va jismonan chiniqqan. U oʻzi yaratgan mashq, musobaqa va oʻyinlar tizimidan oʻz qoʻshinini ruhiy va jismoniy jihatdan tayyorlashda keng foydalangan. Oʻsha davrlarda ot yoki tuyani tez choptirib nayzani nishonga aniq sanchish, qilich bilan "dushmani chopib" tashlash kabi mashqlar uyushtirilgan [12]. Bu mashqlar jangchilarda chaqqonlik, epcillik, chidamlilik va aniq moʻljalga olish sifatlarini rivojlantirgan. Amir Temur oʻz sipohlaridan nihoyatda jasurlik, epcillik va chaqqonlikni talab qilgan. U navkarlariga qilichbozlik, nayza uloqtirish, merganlik, baland qoyadan arqonda tushib, pastdan tosh olib chiqish kabi harbiy tayyorgarlik mashqlarini oʻrgatgan [13]. Uning “Tadbirkor bir kishi uquvsiz ming kishidan yaxshidir” degan shioriga asosan, bir necha dushmanga bas keladigan askarlarni oʻyin va musobaqalar orqali tarbiyalashga alohida eʼtibor qaratgan. Amir Temur polvon, mergan, qilichboz kabi mahoratli jangchilar tayyorlash maktabini yaratgan. “Oʻgitlarida” u “Bel olishganda otangni ayama”, “Kurashib erishilmagan gʻalaba – gʻalaba emas” kabi iboralardan foydalanib, oʻzi va boshqalarni mardlik va botirlikka undagan [14].

Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy oʻz asarlarida koʻplab xalq oʻyinlarining tashkil etilishiga doir bebaho maʼlumotlarni keltirgan. Jumladan, shoirning “Mahbubul-qulub” asarida “oqsuyak” (yoki “oq soʻngak”) bolalar oʻyini deb taʼriflangan. Oʻyin tavsifi quyidagicha: bolalar oʻziga boshliq saylab oladilar. Boshliq qoʻlidagi molning son suyagini (oq soʻngakni) bolalarga koʻrsatib boʻlib, uni kuchi yetgancha uzoqqa irgʻitadi. Bolalar suyak tushgan joyni kuzatib, unga qarab yuguradilar. Kimki suyakni topib olib, atrofdagi bolalarga oldirib qoʻymay boshliqqa olib kelib bersa, oʻyinda gʻolib hisoblanib, sovringa ega boʻladi.

Navoiyning XV asrda yozilgan “Mahbubul-qulub” asaridagi “Oqsuyak” oʻyining tavsifi, XI asrda bitilgan Mahmud Qoshgʻariy devonidagi maʼlumotlar bilan bir qatorda, bu oʻyinning asrlar osha deyarli oʻzgarmasdan saqlanib kelganini koʻrsatadi. Hozirgi kunda ham bolalar “Oqsuyak”ni aynan oʻsha qoidalar asosida oʻynaydilar. Bu oʻyin nafaqat Markaziy Osiyoda, balki Yer kurrasining koʻp joylarida keng tarqalgan; uni Yevropaning Skandinaviya mamlakatlari xalqlari etnografiyasiga oid adabiyotlarda, hatto olis Avstraliyada ham uchratish mumkin. Aslida, xalq oʻyinlari hech qachon chegara va sarhadlarni bilmaydi, aksincha, ular xalqlar va elatlar orasidagi oʻzaro doʻstlik va qon-qardoshlik rishtalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Navoiy asarlarida “oʻyinchi”, “shoʻxboz”, “bozigar” kabi koʻplab oʻyinga oid tushunchalar ishlatilgan. Sanʼatshunos Muhsin Qodirov fikricha, keyinchalik bu soʻzlardan “oʻyinboz”, “oʻyinxona”, “oʻyin-kulgu” kabi atamalar paydo boʻlgan [15]. Alisher Navoiy davrida kurash, chavgon, tirandozlik, nard va boshqa oʻyinlarga moʻljallangan oʻyingohlar mavjud boʻlgan.

Xorazmlik mashhur shoir Muhammad Rizo Ogahiy (1809-1894) ham oʻz ijodiy faoliyatida xalq oʻyinlariga alohida ahamiyat qaratgan. U kurash, chavandozlik, ot ustida kurash, ot ustida turib kamon otish, ot poygasi, qilichbozlik, chavgon, chillak, sopqon, shatranj, nard, dorbozlik, masxarabozlik kabi xalq oʻyinlari va odatlariga izoh berar ekan, bolalar oʻyinlarining tarbiyaviy tomonlarini taʼriflab oʻtgan. Shoir ushbu oʻyinlar orqali bolalarni botirlik, epcillik, chaqqonlik, muvozanatni saqlashga oʻrgatish, ularning qaddi-qomatini chiroyli qilib shakllantirish hamda sogʻlom va baquvvat boʻlishini taʼminlash zarurligini taʼkidlagan [16].

Maʼlumki, barcha oʻyinlar orasida turli kasb egalarining ham oʻziga xos oʻyinlari boʻlgan. Baʼzi tadqiqotchilarning fikricha, uloq (koʻpkari) oʻyini chorvadorlar orasida keng tarqalgan [17]. Bunday oʻyinlar choʻpon-chorvadorlarning ehtiyojlariga koʻra vujudga kelgan, chunki choʻponlar kam harakat qiladi va kasb xususiyatiga koʻra muloqotga, qiziqarli oʻyinlarga oʻch boʻladilar. Ular podani tashlab keta olmasliklari sababli oʻsha atrofda oʻynash imkoniyatlarini izlaganlar.

## 2. Xulosa:

Surxondaryo vohasi tabiat sharoiti jihatidan keng dasht va adirliklardan iborat bo‘lib, chorvachilik xo‘jaligining asosiy markazi hisoblangan. Bu omil tufayli mintaqada chorvachilik turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan milliy xalq o‘yinlari (Chillak, Oqsuyak, Qurma tayoq, Taqya tushirar va boshqalar) qadimdan shakllanib, asrlar osha o‘zgarmasligicha saqlanib kelgan. Ushbu o‘yinlar nafaqat ko‘ngilocharlik vositasi, balki yosh avlodni jismoniy jihatdan chiniqtirish, chaqqonlik, epchillik, merganlik, tezkorlik va jamoaviy harakat qilish ko‘nikmalarini shakllantirishning eng samarali an‘anaviy usuli bo‘lib xizmat qilgan.

Tadqiqot jarayonida o‘zbek xalq o‘yinlarining genezisi ibtidoiy jamoa davridan boshlab mehnat jarayonlari, totemistik qarashlar, marosim va bayramlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangani aniqlandi. Surxon vohasida saqlanib qolgan o‘yinlarning aksariyati chorvachilik va yarim ko‘chmanchi turmush tarzining bevosita mahsuli ekanligi isbotlandi.

Xalq o‘yinlari hozirgacha tarix, etnografiya, pedagogika, folkloristika va san‘atshunoslikning alohida yo‘nalishlarida o‘rganilib kelingan bo‘lsa-da, fanlararo kompleks tadqiqotlar deyarli yo‘q. Mazkur yo‘nalishda tarixiy-davriy, qiyosiy-tipologik va mintaqaviy tadqiqotlarning chuqurlashtirilishi, shuningdek, mutaxassislarining hamkorligida olib boriladigan maqsadli ilmiy izlanishlar o‘zbek milliy o‘yinlarini yangi sifat bosqichida o‘rganish imkonini beradi.

Natijada, Surxon vohasi xalq o‘yinlari o‘zbek etnomadaniyatining eng qadimiy va muhim qatlamlaridan biri sifatida nafaqat mahalliy, balki umummilliy va umumbashariy madaniy merosning ajralmas qismi ekanligi yana bir bor tasdiqlanadi. Ushbu o‘yinlarni asrash, targ‘ib qilish va ilmiy jihatdan chuqur o‘rganish bugungi kunda ham yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashning eng samarali yo‘llaridan biri bo‘lib qolmoqda.

#### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Jabborov I. O‘zbeklar (An‘anaviy xo‘jaligi, turmush tarzi va etno madaniyati). 1-nashr, Sharq, 2008 -T.B. 137.
2. Qurbonova F. Ommaviy bayramlarda xalq o‘yinlari. – Toshkent, 2009. – B.100-102.
3. Yo‘ldoshev S. Farg‘ona vodiysi aholisining xalq o‘yinlari. - Toshkent, 2020. – B.8.
4. Toshpo‘latov J. Surxondaryoda jismoniy tarbiya va sport. Termiz, 1991. B.9.
5. Qoraboev U. O‘zbek xalq o‘yinlari. – Toshkent: “San‘at”, 2001. – B.6-7.
6. Шаниязов К.Ш. Узбеки карлуки – Т., 1964;
7. Qadimgi tarixchilar O‘rta Osiyo haqida, – Т., 2008.
8. Курбонова Ф. Оммавий тадбирларда халқ оъинлари. – Тосҳкент, 2009. Б. 14-15.
9. Пещерева Е.М. Игрушки и детские игры у таджиков и узбеков (по материалам 1924-1935 гг.). // Музей антропологии и этнографии, XVII. – М.-Л.:1957. – С.86-93.;
10. Шаниязов К. К этнической истории узбекского народа (историко-этнографическое исследование на материалах кипчакского компонента). – Ташкент:Фан, 1974. – 342 с.;
11. Кубаков К.К. Детские игры и увеселения узбеков (по материалам Самаркандской и Джизакской областей). // Вопросы археологии, древней истории и этнографии. – Самарканд, 1981. – С 34;
12. Симаков Г.Н. Общественные функции киргизских народных развлечений в конце XIX- начале XX в. – Л.: Наука, 1984. –С.176-189.
13. Jismoniy tarbiya, sport va ma‘naviyat.– Toshkent, 1995. B.-22.
14. Bo‘riev O, Berdiev J. Sohibqiron Amir Temur davri qadriyatlarini etnotarixiy lavhalarda. – Qarshi 2015.– B.315.
15. Amir Temur o‘g‘itlari. Risola – Т.; 1992. B. 24-25.
16. Qodirov M. O‘tmishdagi tomoshagohlar. – “Toshkent oqshomi”, 1991 yil 12 sentabr.
17. Isakova M.T. Komil inson tarbiyasida milliy qadriyatlar. //Alpomish. Ilmiy-amaliy anjuman matnlari. – Farg‘ona, 2000. – B.41-45 .

# ЎТМИШГА НАЗАР

## ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ LOOK TO THE PAST

### Taqdim etilayotgan maqolalarga qo'yilgan talablar:

1. Maqolalar o'zbek, ingliz va rus tillarida minimal 5 sahifadan iborat bo'lib, Microsoft Word dasturida Times New Roman shriftida 12 kegl, 1 satr oralig'ida, sahifalar barcha tomondan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.
2. Satr boshi - 1,25 sm bo'lib, satrlarni eniga to'g'irlash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish avtomatik tarzda bo'lishi lozim.
3. Birinchi qator o'ng tomondan muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, ikkinchi qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, e-mail va telefon raqami, uchinchi qatorda sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi yoziladi. Ushbu ma'lumotlar o'zbek, ingliz va rus tillarda berilishi lozim.
4. Keyingi qatordan o'zbek, ingliz va rus tillarida 60 so'zdan iborat annotatsiya beriladi.
5. Keyingi qatordan 7-10 ta o'zbek, ingliz va rus tillarida kalit so'zlar beriladi.
6. Keyingi qatordan asosiy matn boshlanadi va maqola (IMRAD) 4 qismdan iborat bo'ladi: Mavzuning dolzarbligi. Metodlar va o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot natijalari. Xulosa.
7. Maqolalar ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, ulardagi fakt va fikrlar asoslangan hamda mustaqil ma'no kasb etishi lozim, plagiat holati taqiqlanadi. Muallif foydalanilgan adabiyotlarni aniq ko'rsatishi, olingan iqtiboslarning aniq manbalarini keltirishi lozim.
8. Web of science hamda Scopus tizimidagi jurnallardan iqtiboslar olish maqsadga muvofiqdir.
9. Iqtiboslar matn ichida [1, 25] beriladi. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

### Требования к оформлению научной статьи:

1. Статьи должны содержать 5 страниц, в формате Times New Roman на Microsoft Word, 12 кегль, 1 см, со всех сторон 2 см.
2. Начала абзаца - 1,25 см, формировать строки по ширине, перенос слов в другой ряд должен быть в автоматическом порядке.
3. В первой строке от правой стороны Ф.И.О. автора, во второй строке место работы, должность, ученая степень и ученое звание, e-mail и номер телефона, в третьей строке по центру страницы прописными буквами жирным шрифтом название статьи. Эта информация должна быть предоставлена на узбекском, английском и русском языках.
4. В следующей строке аннотация из 60 слов на трех языках: узбекский, английский и русский.
5. Со следующей строки ключевые слова 7-10.
6. Далее начинается основной текст. новый текст начинается со следующей строки, и статья состоит из (IMRAD) 4 частей: актуальность темы, методы и уровень исследования, результаты исследования, заключение.
7. Статьи должны иметь научное значение, факты и идеи должны быть обоснованными и избежать плагиата. Автор должен точно указать использованную литературу и ссылку на источники, при помощи которых он выразил свое мнение.
8. Сноски или ссылки должен быть взяты из Web of science, а также системы журналов Scopus.
9. Цитирование приводится в тексте [1, 25] Полный список литературы должен быть указан после основного текста, а алфавитном порядке.

### Requirements of the articles submitted:

1. Articles should be at least 5 pages, in Times New Roman, 12 pt., 1 inter.
2. The line head should be 1,25 cm, line spacing, and the words should be automatically moved.
3. The author's full name should be on the first line from the right; the author's place of work, position, academic degree, and academic rank, email address, and phone number should be on the second line; the article title should be centered in bold, capital letters, on the third line. This information should be provided in Uzbek, English, and Russian.
4. An annotation of 60 words in the next line in three languages.
5. Key words from the next row in three languages 7-10.
6. The next line begins with the main text. The main text begins on the next line, and the article consists (IMRAD) of four parts: the relevance of the topic, the methods and level of research, the results, and the conclusion.
7. Articles must be of scientific importance and facts and opinions in the article should be well-grounded and have an independent meaning, and they must be free of plagiarism. The author must clearly demonstrate the literature used in his or her opinion, and provide the exact sources of the extracts.
8. Quotes should be from "Web of science" and "Scopus" journals.
9. A complete list of publications should be followed in alphabetical order after the main text. Seals and references should be in the main text [1, 25].